

ALISHER NAVOIY HAYOT YO'LI VA POETIKASI

*Nurullayeva Go'zal Baxtiyor qizi*  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*  
*Pedagogika fakulteti*  
*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*  
*[gozalnurillayeva276@gmail.com](mailto:gozalnurillayeva276@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada o'zbek xalqi fakri bo'lmish A.Navoiy hayoti va ijodi, uning asarlari talqini hamda poetikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Husayn Boyqaro, "Tazkirat ush-shuaro", Hamsa, "Mantiq ut-tayr" falsafiy dostoni, Zafarnoma, Xudxud, Tarixchi Xondamir ma'lumotlari.

### KIRISH

**Alisher Navoiy** (9-fevral 1441-yil — 3-yanvar 1501-yil) — ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan. G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi.

Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Navoiy 1469-yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan.

Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o'tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480-1500-yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoiy tarjimai holi o'z davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarning asarlarida aks etgan. Alisher Navoiy ham shunday buyuklardan biri. To'rt-besh yoshli go'dakning tojik shoiri Qosim Anvor g'azallarini yod aytishi, maktab yoshida Farididdun Attorning "Mantiq ut-tayr" falsafiy dostonini yodlashi, yetti-sakkiz yoshidan g'azallar bitishi, o'n ikki-o'n uch yoshlarida mamlakat bo'ylab shuhrat taratishi, hikmronlar e'tiborini qozonishi Alisher Navoiyning dunyoga buyuk bo'lib kelganligi kafolatidir.

Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida yozadi: “Sulton Abulqosim Bobur (1422-1457) so’zamol va hunarparvar podshoh edi. U ba’zi paytlarda ulug’ amir bitgan turkiycha, forsiycha she’rlarni mutolaa qilar, ta’bining qudrati va sharofati so’zlarining shirinligidan hayratlanar, taajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar o’qir edi”.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o’g’li Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotga tug’ildi. Zamondoshlari uning haqida ko’pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. 'Nizomiddin»-din—diyomat nizomi degani bo’lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ — amir demakdir. Uning otasi G’iyosiddin Muhammad (uni G’iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo’lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o’g’li Umarshayx bilan emikdosh (ko’kaldosh) bo’lgan ekan.

Buyuk shoir o’z asarlarida bu qutlug’ dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu tabarruk zot to’g’risidagi ba’zi ma’lumotlarni esa uning zamondoshlari o’z kitoblarida beradilar.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o’sdi. Kichiklik chog’idan she’r va musiqaga ishq tushdi. Olimu fozillar davrasida bo’ldi. Uch-to’rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she’rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so’ng uni maktabga berdilar. U bo’lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o’qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi.

1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar o’rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Hirot notinch bo’lib qoladi. Alisherlar oilasi Iroqqa yo’l oladi. Yo’lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, „Zafarnoma“ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi.

Alisher xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir bu bilan bog’liq shunday bir hikoyani keltiradi: Karvon Yazd cho’li bilan Hirotga borarkan, tungi yurishlardan birida ot-ulov ustida hammani uyqu bosadi. Alisher mingan ot, ittifoqo, yo’ldan chiqib, bo’lajak shoir egardan tushib qoladi, uyqu zo’rluk qilib, uyg’onmaydi. Horigan ot ham egasi yonidan ketmay, to’xtab qoladi.

Alisher tong otib, quyosh qiziganda uyg’onadi. Qarasa, poyonsiz sahro, atrofida hech kim yo’q. Yolg’iz otigina yovshan ildizlarini chimtib turibdi. O’n yoshli bola o’zini qo’lga oladi. Otini minib, zehn bilan yo’lni topib ilgari yuradi. Kun qizib, chanqoqlik boshlanadi. Shu payt uzoqdan bir narsa qorayib ko’rinadi. U suv to’la mesh ekan, Ollohga shukronalar aytib, Alisher yo’lini davom ettiradi. Uning ota-onasi manzilga yetgach, o’g’illarini yo’qligini biladilar va mulozimni shoshilinch orqaga qaytaradilar. Mulozim ko’p yurmay, Alisherga duch keladi. Alisherni, go’yo u qayta

tugʻilganday, quvonch bilan kutib oladilar.

1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzo Xuroson taxtiga oʻtiradi, notinchliklar bosiladi. Gʻiyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher esa oʻqishini davom ettiradi. Maktab yosh Alisherni sheʼriyat, adabiyot olamiga olib kirdi. Boʻlajag shoir Saʼdiy Sheroziyning „Guliston“. „Boʻston“, asarlarini, Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ („Qush mantigʻi“)ni soʻngsiz ishtiyoq bilan oʻqidi. Ayniqsa, qushlar tilidan keltirilgan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning oʻy-xayolini tamom egallab oldi: Bir kuni qushlar jam boʻlibdi. Har xil: toʻti, qumri, tovus, bulbul va hokazo. Oʻrtaga hudhud (sassiqpopishak) chiqibdi. Boshidagi tojini selkillatib, oʻzini taʼrifu tavsif etibdi. Soʻng u hammani olam podshosi Semrugʻni izlashga undabdi. Qushlar uni surishtira boshlabdilar. „Zotini, sifatini, sifatini ayt, bizga nishon ber!“ — deyishibdi ular. Hudhud hikoya boshlabdi: Semurgʻ bir kecha dunyoni aylanib, uchib yurar edi. Nogoh yoʻli Chin shahri ustidan tushdi. Bir silkingan edi, mamlakat nurga gʻaeq boʻldi. Patidan biri tushib qolgan ekan. Ogoh boʻlganlar aqlu shuurini yoʻqotdilar. Chin mulki esa hashamat(ulugʻvorlikka) chulgʻandi. Qushlar zavq-u shavq bilan yoʻlga tushadilar. Biroq bu zavq-shavq uzoq davom etmaydi. Qushlar eʼtiroz bildirib, uzr aytib, oʻzlarini chetga ola boshlaydi. Hudhud har biriga javob aytadi. Semrugʻga yetishish baxti oldida bu dunyoning tashvishlari hechligini isbot etuvchi biror hikoya keltiradi. Hudhudning gaplari, hikoyalari qushlarga yangi bir kuch bagʻishlaydi. Ular hudhudni boshliq qilib, yoʻlga tushadilar. Hudhud buy oʻlning ishq yoʻli ekanligi, unga kirgan odam Shayx Sanʼon singari oʻzligidan kechishi lozimligini aytadi. Yana bir-biridan jozibali hikoyalar: Nihoyat, qushlar yeti vodiyni bosib oʻtadilar va oʻzlarining Semurgʻ ekanligini anglab yetadilar.

Mantiq ut-tayr“ xayoli Alisherga bir umr hamroh boʻldi. Umrining soʻngida esa „Lison ut-tayr“ („Qush tili“) nomi bilan kitob yozdi. Boʻlajag shoir yana Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlarini sevib oʻqir edi.

1453-yilda Alisherning otasi Gʻiyosiddin Mauhammad vafot etadi. Alisher Abulqosim Bobur hizmatiga kirdi. Avval Sabzavorda, soʻng Mashhada yashadi. Ikki maktabdosh doʻst — Husayn va Alisher yana birga boʻldilar. Bir munosabat bilan u 50 ming bayt, 100 ming misra sheʼr yod olganini aytdi. Sheʼr shunchaki nutq oʻstirish emas, maʼrifat, taffakur mashqi ham edi. Navoiy 15 yoshlarida oʻz sheʼrlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tordi. Xondamirning yozishicha, sheʼrlari bilan endigina tanilib kela boshlagan Alisher oʻz davrining dongdor shoiri Mavlono Lutfiy xizmatiga boradi. Mavlono undan sheʼr oʻqishni iltimos qiladi. Alisher oʻzining: Orazin yopgʻoch, koʻzimdin sochilur har lahza yosh, Boʻylakim, paydo boʻlur yulduz nihon boʻlgʻoch quyosh. Matlaʼi bilan boshlanadigan gʻazalini oʻqiydi. Sheʼrdan hayratga tushgan keksa shoir bunday deydi: „Valloh, agar muyassar boʻlsa edi, oʻzumning forsiy va turkey tillarda aytgan oʻn-oʻn ikki ming baytimni shu gʻazalga

almashtirardim va buni o‘zinning katta yutug‘im deb hisoblar edim“. Bu turkiy (o‘zbek) she‘riyatiga juda katta iste‘dod kirib kelayotganidan nishona edi.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy “Majma‘ un-navodir” asarida yozishicha, u vaqtlarda shoir bo‘lishni istagan kishi o‘zidan oldin o‘tganlar ijodidan yigirma ming bayt, zamondosh shoirlar ijodidan o‘n ming bayt she‘rni yod olishi kerak ekan. Navoiy Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonidan tashqari (dostonni to‘liq yod bilgan) “Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘zi qayd etishicha, yigitlik yillarida o‘zi sevgan shoirlarning “shirin ash‘ori va rangin ab‘yotidin” ellik mingdan ortiq baytni yod bilgan ekan.

1447-1449-yillarda Alisherlar oilasi Iroqning Taft shahrida yashaydi. Yosh Alisher Taftda buyuk tarixchi- olim SHarafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi.

1449-yilda ular yana Hirotga qaytib keladi. 1452-1457-yillarda otasi G‘iyosiddin Kichkina podshoh Abulqosim Bobur saroyida xizmat qiladi, uni podshoh Sabzavor shahriga hokim qilib jo‘natadi. Alisher podshoh Abulqosim Bobur homiyligida Mashhadda o‘qishni davom ettirdi.

Alisher o‘n ikki yoshida (1455) otasidan yetim qoladi va Xuroson podshosi Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi.

Abulqosim Bobur adabiyot va san‘atni sevar, ijodkorlarni qadrlar, o‘zi ham o‘zbek va fors tillarida g‘azallar yozar edi. Ma‘rifatparvar hukmdor Alisherni o‘z tarbiyasiga oladi. Uning iqtidorini, qobiliyatini e‘zozlab, bilim olishi, ijod qilishi va shoirlik malakasini oshirishiga e‘tibor qaratadi. 1456-yil Abulqosim Bobur o‘z poytaxtini Xurosondan Mashhadga ko‘chiradi va Alisherni ham o‘zi bilan olib ketadi. 1457-yil Abulqosim Bobur vafot etdi, Abu Sayd Mirzo Hirot taxtini egalladi. 1459-1469yillari Alisher Navoiy Samarqandda yashadi, unga Samarqand hokimi Ahmad Hojibek, mashhur olim Fazlulloh Abulays rahnamolik qildi. Alisher Mashhadda qolib o‘qishni davom ettirdi. U mantiq, falsafa, riyozat (matematika) kabi fanlar bilan birga shug‘ullandi. Ayni vaqtda, o‘zbek va fors tillarida go‘zal g‘azallar bitib, el orasida zullisonayn shoir sifatida tanildi. Alisher o‘zbek tilidagi she‘rlarida “Navoiy”, fors tilidagi she‘rlarida “Foniy” taxallusini qo‘llaydi.

Navoiy Mashhadda Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadlar bilan yaqin do‘st bo‘ladi va bu ma‘rifatparvar kishilar haqida keyinchalik “Holati Sayid Hasan Ardasher”, “Holati Pahlavon Muhammad” kabi adabiy-biografik asarlar yozadi.

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi.

Navoiyning bilim saviyasi, qobiliyati va she‘riy iqtidoridan xursand bo‘lgan Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug‘ shoir o‘rtasidagi ustozlik va shogird munosabatlari yanada mustahkamlanib, hamkorlikka aylanadi.

Alisher 1466-yil Samarqandga keladi va u yerda dastlab moddiy qiyinchilikda yashaydi. SHunga qaramay, Samarqand madrasalarida tehsil oladi, ilm-fan, adabiyot

va san'at ahli bilan tanishadi. O'zining iqtidori, qobiliyati bilan tez orada obro' va e'tibor qozonadi.

1469-yili Husayn Boyqaro taxtni egallagach, Alisher Navoiyni Hirotga, o'z yoniga taklif etadi.

Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan "Hiloliya" qasidasini bitadi.

"Ixlosiya" madrasasi, "Xalosiya" xonaqohi, "SHifoiya" tabobatxonasi, Jome' masjidi, "Dorul-huffoz" (qiroatxona) va shunga o'xshash boshqa o'nlab binolar, rabotlar qurdiradi, kanallar qazdiradi.

Alisher Navoiy 1472-1476-yillar birinchi she'riy devoni "Badoye ul-bidoya", 1486yilda ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya"ni yaratdi.

1483-1485-yillar davomida "Xamsa" asari yaratildi. 1491-1492-yillarda u o'zbek tilida yozgan hamma she'rlaridan yaxlit bir devon tuzishga kirishadi. Devon ustidagi ish 1498-1499-yillargacha davom etdi. U to'rt qismdan iborat bo'lib, har qaysisi tugal bir devon edi. Unga shoir "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") deb nom beradi. Bu devon xalq orasida "Chor devon" nomi bilan ham mashhur.

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", 1491-yilda

"Majolis un- nafa'is" tazkirasini, 1492-yil adabiyot nazariyasiga oid "Mezon ulavzon" risolasini, 1495-1496-yillarda "Nasoyim ul-muhabbat", 1498-1499-yillarda "Lison ut-tayr", 1499-yil "Muhokamat ul-lug'atayn", 1500-yil "Mahbub ul-qulub" kabi bir qancha asarlar yaratdi.

Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda og'ir betoblikdan so'ng hayotdan ko'z yumdi.

Husayn Boyqaro buyrug'iga ko'ra butun mamlakatga motam e'lon qilindi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abduroziq Rafiyev, Nazira G'ulomova. Ona tili va adabiyot. "SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. Toshkent-2013. 191-bet
2. Abduroziq Rafiyev, Lobar Rafiyeva. O'zbek tili va adabiyoti. TOSHKENT "NISO POLIGRAF" 2015. 120-bet
3. Pulatov, Sh., Madalimov, T., Mullajonov, I., Qodirov, M., & Valiyev, L. (2020). Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. International Journal of Multidisciplinary Research and Publications, 2(11), 47-49.
4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

5. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. *Academic Research In Educational Sciences*. Volume 1. 2020 468-474 P.
6. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
7. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
8. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // *Academic Research in Educational Sciences*, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
9. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
10. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.